

AMIR OLIMXON SHAXSI VA FAOLIYATI INGLIZ TADQIQOTLARIDA

Vapayeva Yorqinoy Matyakubovna

Xalq deputatlari Yashnobod tuman kengashi deputati

E-mail: azizailhomovna2298@mail.ru

Tel: +998909750072

E-mail: nuriddinova2298@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tadqiqotchilari tomonidan mang'itlar sulolasining so'nggi vakili Said Olimxon shaxsi hamda uning hayoti, faoliyati haqida to'xtalangan. Shuningdek, Olimxon davrida boshqaruv hamda amirning boyliklari va savdo aloqalari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Azov-Don, «Qutulish» ro'znomasi, «Manchester-Gardiyen» gazetasi, Shveysariya banklari, «Благой почин».

Xorijlik tadqiqotchilar ilmiy merosi so'nggi yigirma yilda Buxoro tarixining turli tomonlarini qamrab olish bilan yanada boyidi. Yurgen Paul, Devin Devis, Florian Shvars, Anke fon Kyugelgen, Mariya Shuppe va boshqa xorijlik hamda tadqiqotchilar ilmiy yo'nalishida Buxoro alohida ahamiyat kasb etib, maxsus tadqiqot ob'ekti bo'ldi. Bu tadqiqotchilarning aksariyati Buxorodagi mang'itlar davri, Rossiy tomonidan egallanishi va Buxoroda shakllangan Naqshbandiya tariqatining ijtimoiy hayotdagi o'rni masalasini chuqur tahlil qilishni asosiy vazifa sifatida tanlab, shu yo'nalishda qator tadqiqotlarni olib borishdi.

Said Olimxon jamiyatda poraxo'rligni butunlay yo'qotish va ta'lim tizimini tubdan isloh etishga harakat qildi. Buxoro amirining so'nggi hukmdori amir Said Olimxon hukmronligi davri aksariyat tadqiqotlarda salbiy tasvirlanadi. Amir Said Olimxon mamlakatda tartib-intizom o'rnatish, ma'rifatparvarlikka yo'l ochish hamda obodonchilik ishlarini rivojlantirishga muayyan darajada hissa qo'shdi. Amir Olimxon o'z farzandlariga ingliz, urdu tillarini o'rgatish uchun Britaniya Hindistonning Murobod shahridan Xo'ja Raxmatullo va uning ukasi Xo'ja Karomatullo ism-sharifli ikkita o'qituvchi yollab, farzandlari ta'limigaha e'tibor berdi. U har tomonlama ilmni qo'llab-quvvatladi. Bu borada amir Said Olimxon o'zining «Buxoro xalqining hasrati tarixi» nomli asarida quydagilar keltiriladi: «Buxoro minorasining past tomonida, bozorning ichki tomonida o'z nomimdan Dor-ul-ulum-Bilim uyi bo'lgan bir madrasa qurdirdim, har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin ettirdim. Bozor va yo'l obodligiga ko'p harakat qildim, uch yil ichida Buxoro mamlakati ancha obod bo'ldi, unga zeb-ziynat va tartib-intizom o'rnatdim. Mening sayi-harakatimdan Buxoro aholisi va butun mamlakat mamnun bo'ldi. Said Olimxon hukmronligi davrida «Yosh

buxoroliklar”ning talablari asosida bir qator islohotlar amalga oshirilishi mo‘ljallandi. Jumladan, mahalliy soliqlar 10 foizgacha qisqartirildi, harbiylar oylik haqi oshirildi (piyoda xizmatchilariga oyida 3-9 rublgacha, otliq qo‘shinlarga 6-20 rublgacha); yoshi ulug‘ bo‘lgan harbiy xizmatdan ozod qilingan kishilarga oyida 3 rublgacha nafaqa tayinlandi; qozilarga sud jarayonida taraflardan aniq belgilangan miqdordagi boj haqi undirish buyurildi; rais-shahar boshlig‘ining xarajatlari qisqartiriladi, muqaddas yerlardan foyda olishga ruxsat beriladi; keng qamrovli xomiylik faoliyatiga asos solindi.¹

Shuni alohida ta’kidlash joizki, amirlikda o‘tkazilishi ko‘zlangan islohotlar monarxiya davlat boshqaruviga hamda shariat normalariga asoslanmagan edi. Shuning uchun islohotning e’lon qilinishi bilan mamlakatda siyosiy vaziyat keskinlashib, turli kuchlarning qarshiligi yanada oshdi. Shu bilan birga, Said Olimxon davlat boshqaruvida iqtisodiy masalalarga ham alohida e’tibor qaratgan va bir qator yutuqlarga erishgan amir sifatida tariflash mumkin.²

Fayzulla Xo‘jayevning ma’lumotlariga qaraganda, amirlikda xissadorlik jamiyatlari, banklar, sanoat va ishlab chiqarish korxonalari tuzildi. Olingan daromadlar temir yo‘l, aloqa va maishiy xizmat ko‘rsatish sohalariga ajratildi. Buxoro amirligi davlatchiligi shakllanishi va rivojlanishi xususida quydagicha xulosaga kelish mumkin:

Birinchiidan, tarixiy-ilmiy xoslikka asoslanib ushbu davrni ikki bosqichda o‘rganish mumkin.

Ikkinchiidan, bir yarim asrdan ortiq davlatchilikka ega bo‘lgan Buxoro amirligida davlat-huquqiy tartiblar muayyan darajada amalga oshirildi.

Uchunchidan, o‘z davrida ijobiy xarakterlangan va bugungi kun uchun ham ahamiyatga ega bo‘lgan amir boshqaruv faoliyatiga ijobiy baho berish mumkin.

To‘rtinchidan, Buxoroning so‘nggi amiri davlat mustaqilligi va xavfsizligini ta’minlashda muayyan darajada harakat qildi.³

Amir Olimxon davrida shariat qonunlari ijrosini to‘g‘ri amalga oshirilishini nazorat qiluvchi va fatvo beruvchi muftilarning tuman-viloyatlardan kelgan o‘n ikki vakildan iborat qozikalon huzurida muftilar idorasi tashkil qilindi. Uni katta mufti yoki a’lam boshqarib turgan. Har yili navruz oyi boshida Buxoroda qozilarning uch kunlik seminar yig‘ilishi qozikalon, a’lam va o‘n ikki muftining hammasi yig‘ili, amir raisligida barcha masalalar muhokama qilingan.⁴

¹ Becker Russia’s Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924, London, 2004 -153-bet

² M. Louw Moral Exemplars and Ordinary Ethics. Constructing the Uzbek State, 2017. 138-bet

³ Glenda Fraser Basmachi-II, Great Britain, 2007. 198-bet

⁴ M. Louw Moral Exemplars and Ordinary Ethics. Constructing the Uzbek State, 2017. 147-bet

Angliyalik Olim Meri Xoldsvort Buxoro amirligining siyosiy ahvoli, markaziy va mahalliy boshqaruv masalasiga e'tibor qaratib, o'z tadqiqotlarida "Buxoro va Qo'qonda amirlik yoki xonlik beklıklardan iborat bo'lgan. Ular viloyatlar deb atalgan hamda xon yoki amir oilasi bilan qarindosh hokimlar yoki beklar tomonidan idora qilingan. Viloyatlar Buxoroda tumanlarga bo'linib, har biri mahalliy hukmdor oilalaridan chiqqan beklar qo'l ostida edi. Oqsoqol yoki miroblar mahalliy amaldorlar bo'lib, ijro etuvchi shaxs hisoblangan." ⁵

Amirlik iqtisodiy jihatdan o'z xo'jalik tizimining soddaligi va daromadliligi bilan ajralib turadi. Buxorodan Rossiyaga qilinadigan eksport 88 foizni, import esa 90 foizni, 1850-1860 yillarda 30-40 ming dona qoraqo'l terini tashkil etgan bo'lsa, 1911 - 1914 yillarda 1,5 million dona qorako'l teri eksport qilindi. Buxoro amiri va uning amaldorlari savdo-sotiq ishlariga yiliga 1 million so'mga yaqin qarz berib turgan. Bulardan tashqari, Buxoroda ishlab turgan yettita xususiy bank eksport-import operatsiyalarini yiliga 40 million so'mlik kredit bilan ta'minlab turdi. ⁶ Yangi Buxoro-Kogonda 1894-yilda ochilgan davlat banki 90 million so'mlik sarmoyaga egalik qilar edi. Shundan keyin to 1917-yilgi inqilobiy to'ntarishga qadar Kogonda Rus-Osiyo birlashgan banki, Moskva hisobidagi Azov-Don birlashgan xorijiy savdo banki, Rus-Buxoro banki, O'rtoqlik, Katta Yaroslav manufaktura savdo uyi va boshqa bank va savdo-sotiq tarmoqlari ishlab turgan. Shuningdek, Qogonda Shlosberg, Potelyaxoz Vadilni, Modviga Gabenek va Danila, Nikolayev manufaktura markazi, savdo uylari aholiga xizmat qilib turdi. Buxoro inqilobiga qadar Rossiyaning Buxorodagi diplomatik vakillari Miller, Vvedenskiy, Shulga kabilar mahalliy boy va amaldorlardan katta pora olib, million-miljon pullari, zeb-ziynatlarini Rus-Buxoro banklarida saqlagan. Buxoro Xalq Sho'ro Sotsialistik Jumhuriyati iqtisodiy, xo'jalik va savdo-sotiq ishlariga katta ahamiyat berdi. Fayzulla Xo'jaev 1923-yildayoq o'n yilga rejalashtirilgan (1923-1933) oltin zayom chiqardi. Besh foizlik bu zayom 20-30-yillarda yengil sanoat, xalq xo'jaligini rivojlantirishda, mehnatkashlarning turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Fayzulla Xo'jayev Buxoro amiri qo'shni Eron, Hindiston, Afg'oniston, Angliya mamlakatlari bilan keng ravishda savdo-sotiq ishlari olib borib, o'z xazinasini boyitganligini shunday ifodalanadi: «Amir faqat davlat rahbari, islom dinining boshlig'i bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga katta savdo-sanoat mulkiga egalik qilar edi. U xalq butunlay huquqsiz bo'lib qolgan sharoitda o'zining hokimi mutlaqlik mavqeidan ommani shafqatsiz boshqarishda

⁵ O. Olufsen The Emir of Bukhara and his country. Glydendal, Nordisk forlag. Copenhagen, 1911. 94-bet

⁶ Glenda Fraser Basmachi-I, Great Britain, 2007. 45-bet

foydalandi. Vazirlar va katta amaldorlar ham bu sohada undan qolishmadi”. Amir ko‘plab mablag‘larni boshqa davlatlar uchun ham sarfladi.⁷

Amir Olimxon nafaqat Buxoroda, balki Rossiya va Afg‘onistonga ham katta sarmoyalar kiritib, o‘zgarishlar qilishga harakat qildi. Jumladan, amir, bir tomondan, Rossiya ishlab chiqarishiga ma‘lum maqsadda katta miqdorda investitsiya kiritib, uning evaziga xazinani yanada boyita oldi. Ikkinchi tomondan esa, Rossiyaga har yili katta-katta miqdorda o‘lponlar to‘lashiga to‘g‘ri keldi. Amirlik xazinasiga oid xujjatlar va ma‘lumotlarga tayangan holda amir Sayyid Olimxonning Rossiyaga kiritgan sarmoyalarini to‘rt xil turga ajratish mumkin:

- 1) Rossiyadagi qurilishlar, ishlab chiqarish va manufakturalarga sarflangan sarmoya, investitsiyalar;
- 2) Rus podshosi va amaldorlari yubileylari hamda boshqa munosabatlar bilan ularga inom qilingan qimmatbaho sovg‘a-salomlar;
- 3) Rossiyaga urush olib borish va boshqa shu kabi favqulodda holatlar davrida oltin hisobida ko‘rsatilgan yordam mablag‘lari;
- 4) Rossiya bilan savdo-sotiq ishlariga sarflangan mablag‘lar.⁸

Ma‘lum bo‘lishicha, amir Sayyid Olimxon iqtisodiyot-biznes sohasida ham o‘zining muayyan siyosatiga ega bo‘lgan hukmdor hisoblanadi. U taniqli rus ishbiarmonlari, savdo va qurilish hamda moliya sohalarining tashkilotchilari A. A. Neratov va Ivan Staxeev kabi kishilar bilan shaxsan yaqindan hamkorlik o‘rnatgan. Ular bilan ikki tomonlama manfaatdorlikka asoslangan moliyaviy hamkorlikni amalga oshirib, kattagina muvafaqqiyatlarga erishdi. Bunga esa, Rossiyada amirlik xazinasidan foydalanishga katta iqtisodiy ehtiyoj borligi asosiy omil bo‘ldi.⁹

Rossiyada ishlab chiqarish va sanoat hamda savdo rivojlanishida amirlik xazinasining xissasi asosiy o‘rin tutdi. Rossiyada o‘nlab yirik temir yo‘llar qurilishi, manufakturalarning ishga tushirilishi hamda banklarning faoliyat yuritishiga amir Sayyid Olimxon kattadan-katta investitsiyalar sarfladi. Bular Neva va Staro-Gorkin manufakturalari, Staxeev firmasi, Shuya va Shibanov korxonalarini, Volga-Bogulma va Rus-Buxoro temir yo‘llari, Rus-Osiyo, Rus-Buxoro banklari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. 1928-yil 17-martda VKP(b) Markaziy Qo‘mitasining berilgan 0251-raqamli hamda unga oradan uch kundan keyin 20-martda qo‘shimcha qilib yuborilgan 02256-

⁷ Becker Russia’s Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924, London, 2004. 159-bet

⁸ M. Louw Moral Exemplars and Ordinary Ethics. Constructing the Uzbek State, 2017. 76-bet

⁹ O. Olufsen The Emir of Bukhara and his country. Glydendal, Nordisk forlag. Copenhagen, 1911. 104-bet

ma'lumotnomalarda quyidagilar keltiriladi: "Sayyid Olimxon o'z boyligini Rossiyadagi katta tadbirkorlarga berib, oltin va boshqa qimmatbaho toshlardan iborat maxsus fond tuzdi. U hatto Gollandiyada qimmatbaho toshlar savdosini ishga tushirdi. Inqilobdan oldin Rossiyada uning boyligidan foydalanuvchi katta bir fond ham tashkil qilindi. Bunga taxminan 1914-yilda Rossiya Tashqi ishlar vaziri do'stining akasi oxirgi yillarda Rossiya moliya sarmoyasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli tadbirkor arbob A. A. Neratov vositachi sifatida rahbarlik qildi. U orqali Buxoro amiri Sayyid Olimxon o'zining shaxsiy boyligini hissadorlik asosida Staxeevning firmasi korxonalariga uch bosqichda o'tkazib turdi. 1917-yilga kelib, Rossiyaga Buxoro amiri kiritgan sarmoyaning umumiy miqdori oltin hisobida 42.5 mln. so'mni tashkil qildi. Staxeev esa amirdan olgan pullarga Rossiya to'qimachilik sanoatining bir necha yirik korxonalarini xarid qildi. Bularning qatorida gigant Neva manufakturasini ham mavjud edi. Amir bilan Staxeevning oldi-berdi muomalasi Rus-Osiyo banki hamda Birlashgan bank orqali amalga oshirilib turdi. Rus-Osiyo banki boyligining katta bir qismi, butun o'z boshqarmasi bilan birga Staxeevning ixtiyorida edi".¹⁰

Bu yirik rus korchaloni korxonalarining Markaziy boshqarmasi Parij shahrida edi. Amir Sayyid Olimxon tomonidan Rossiyaga kiritilgan sarmoyalardan tushgan foydaning ma'lum bir katta qismi Parijdagi bankka ham kiritib turildi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Rossiya banklari amirning sarmoyasini muomalaga kiritib katta daromad olib turdi. Katta tadbirkor A. A. Neratov Volga-Bogulma temir yo'li qurilishi boshqarmasi raisi hisoblanadi. U biznesmen sifatida Buxoroda bir necha marta bo'lib, amir bilan yaqindan aloqa o'rnatib, hamkorlik qilib turdi. Bevosita uning vositachiligida amir Rus-Osiyo savdo banki orqali Rossiyaning Katta Rus qog'oz ishlab chiqarish fabrikasiga 33 mln, Rus-Buxoro banki tashkil topishiga 2.5 mln, Rus-Buxoro hissadorlik jamiyatiga ham 2.5 mln, Buxoro temir yo'li qurilishiga esa 3.5 mln oltin hisobida sarmoya kiritdi.¹¹

Ikkinchi katta korchalon Staxeev amir Sayyid Olimxondan 8 foiz hisobida kredit olgan 25 mln. oltin pulni Neva, Sheva, Shibanov va Staro-Gorkin manufakturalariga sarflab, ularni ishga tushirdi. Bular esa, o'z o'rnida yaxshi faoliyat ko'rsatib Rossiyaga milliardlab foyda keltirgani, shu bilan birga uning iqtisodiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shgani ham yaqqol namon bo'ldi. Boshqacha qilib aytganda, amirlik xazinasi Rossiyada kapitalizm rivojiga sezilarli darajada yordam berdi.¹²

¹⁰ M. Louw Moral Exemplars and Ordinary Ethics. Constructing the Uzbek State, 2017, 87-bet

¹¹ Becker Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924, London, 2004. 162-bet

¹² O. Olufsen The Emir of Bukhara and his country. Glydendal, Nordisk forlag. Copenhagen, 1911. 119-bet

F. Xo'jayevning ma'lumot berishicha, "amir million-million so'mlik mablag'larni savdo sohasida, temir yo'l kompaniyalarida, rus va chet el firmalarining sanoat korxonalarida ishga tushirishga sarfladi". Shuningdek, u keltirgan Rossiya podsho hukumatining Buxorodagi vakolatli amaldori P. Vvedenskiy tomonidan 1920-yil 26-fevralda amir hukumatining talabi bilan yozilgan amir va rus hukumati iqtisodiy aloqalariga oid to'la bo'lmagan hisobotda ham e'tiborga molik ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu hisobotda ko'rsatilishicha, amirga Buxoro banki va Buxoro temir yo'lga qo'yilgan sarmoyalardan belgilangan shartlar asosida foyda to'lanishi shart qilib qo'yildi. Shuningdek, ip yigiruv korxonasiga qo'yilgan sarmoyadan amirga 7 foiz kafolatlangan foyda berilib turildi. Yana shu hisobotda ko'rsatilishicha, yuqoridagidan tashqari 1910-1917-yillarda Buxoro hukumatidan Rossiyaning Buxorodagi rezidentiga ham mablag'lar to'lab turildi.¹³

Buxoro amirligi eng boy mamlakat bo'lib, Rossiyaga salkam yarim asrlik vassalligi davrida behad ko'p miqdorda mablag' sarfladi. Bu haqda Fayzulla Xo'jayev shunday deb yozgan: "Juda katta miqdordagi million-million so'mlar amir tomonidan rus sanoati korxonalarini, temir yo'llari kompaniyalari va savdosiga hamda chet el firmalariga sarf qilindi. Amir Sayyid Olimxonning Rossiyaga yordam ko'rsatishi Germaniya Rossiyaga urush e'lon qilgan kuniyoq boshlandi. Bunga misol. "Туркестанские ведомости" gazetasining 1914-yil 2-avgust sonida "Благой почин" (Muruvvatli tashabbus) degan sarlavha ostida quyidagicha xabar e'lon qilindi: "Buxoro amiri Hazrati oliylari sahiylik bilan "Qizil xoch"ga yuz ming oltin hisobida pul o'tkazib katta tashabbus qildi. Bu tashabbus o'zidan so'ng bir necha katta miqdordagi yordamlarga yo'l ochdi. Nikolay II amir Sayyid Olimxonning bu himmatlarini yuqori baholab, unga 1915-yil 30-dekabrda general-leytenant harbiy unvoni bila taqdirladi. Amir haqiqatdan ham Rossiyaning urushda g'alaba qozonishiga katta hissa qo'shdi. U 1914, 1915, va 1916-yillarda Rossiyaga har yili bir milliondan jami 3 mln. oltin hisobida mablag' yuborib turdi. Bulardan tashqari amir Nikolay II talabiga ko'ra, 1914-yilning o'zida Rossiyaga 10 dona to'p, 500 ta beshotar miltiq, 1500 ta chopqir ot va boshqa urush uchun kerakli narsalarni yetkazib berdi."¹⁴

Buxoro amiri o'z xazinasidagi qimmatbaho narsalardan Mashhadga ham yuborib turdi. Masalan, 1920-yil iyul oyi boshlarida Said Olimxon bu yerga uch tuya oltin, 16 tuya kumush, 25 tuya qimmatbaho narsalarni jo'natdi. Inqilob arafasida ilg'or mahalliy ziyolilar Buxoro xazinasining chet elga yuborilishiga qarshilik qildi. Shunday kishilardan biri Abdulvohid Munzim «Qutulish» ro'znomasida keltirgan maqolasiga ko'ra: «Buxoroning oltin, kumush, qorako'l terisi va shunga o'xshash boyliklari chetga

¹³ M. Louw Moral Exemplars and Ordinary Ethics. Constructing the Uzbek State, 2017. 98-bet

¹⁴ O. Olufsen The Emir of Bukhara and his country. Glydendal, Nordisk forlag. Copenhagen, 1911. 128-bet

chiqarilmasin»,- deya murojaat qiladi. Yurt farzandlari F. Xo‘jayev, A. Fitrat ham xalq boyligini chetga chiqarishga qarshilik qildi.¹⁵

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Gubarevich-Radobilskiy “Экономический очерк Бухари и Туниса” (1905) kitobida: «Amirlikning umumiy daromadi va xarajatlari 7 million so‘m bo‘lgan, shundan xazinaga 4 million so‘m tushgan»,- deb ma‘lumot beradi. S. Ayniyning «Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar» kitobida aytilishicha, amirlikning umumiy daromadi 1912-yilda 30 million so‘mni tashkil qildi. Inqilobga qadar amirning 6 ming sarbozi uchun 1 million so‘m, ming nafar el navkarlari uchun taxminan yuz ming so‘m mablag‘ sarflandi. D. N. Logofetning “Бухарское ханство под руским протекторатом” (1869.) kitobida yozilishicha, daromadlar 18 million so‘mni, xarajatlar esa, 2,5 million so‘mni tashkil qildi. Biroq Buxoroda Rossiya siyosiy agentligi to‘plagan ma‘lumotlarga qaraganda, 1869-yilda Buxoro amirligi xazinasida 7349,5 million so‘m mablag‘ mavjud edi. Amir qushbegisining ma‘lumotiga ko‘ra esa, amirlikning yillik o‘rtacha daromadi 3 million 345 so‘mdan iborat edi. Bu va boshqa biri ikkinchisiga zid ma‘lumotlardan ayonki, Buxoro amirligi xazinasining muayyan hisob-kitobi aniq mavjud emas edi.

Umuman olganda, Buxoroda qadimdan savdogar boylar ko‘p bo‘lgani ma‘lum. Buxoro jadidlarining paydo bo‘lishi ham bevosita mana shu savdogarlarga bog‘liq edi. Shuning uchun ham ularni sovet tarixchilari kommunistik mafkura nuqtai nazaridan “savdo burjuaziyasi ideologlari” deb ko‘rsatganlari bejiz emas edi. GPUning «Товар» va «Правители» deb nomlangan xujjatlar to‘plami va boshqa yozma manbalarning ma‘lumot berishicha, “amir Sayyid Olimxon savdo va boshqa iqtisodiy aloqa yo‘llari bilan chet el mamlakatlari banklariga foyda olish uchun juda katta miqdorda sarmoya qo‘ygan hamda savdo va ishlab chiqarish uchun xorijga oltin hisobida sarmoyalar kiritib turdi. Masalan, Fransiya, Angliya, Hindiston, Pokiston va Rossiya banklariga o‘tkazilgan boyliklar bularga yaqqol misol bo‘ladi”. Amirning bu tadbirlarini tasdiqlagan holda, uning o‘g‘li Sayyid Mansur shunday dedi: “amir Olimxon o‘ziga qolgan barcha mulklarni, million-million dollarlarni xorij banklariga qo‘ydi, biroq ulardan o‘zi rejashtirgan tartibda foydalana olmadi”.

1923-yil 4-iyunda “Manchester-Gardiyen” gazetasida Said Olimxonning “Bolsheviklarning O‘rta Osiyo kompaniyasi” nomli murojatnomasida Sovet Rossiyasining 1917-1922-yillarda Markaziy Osiyoda yuritgan mustamlakachilik

¹⁵ Becker Russia’s Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924, London, 2004. 189-bet

siyosati, Buxoroning ruslar tomonidan zabt etilishi, amirlik xazinasining Moskvaga olib ketilishi, bosmachilik harakatlari haqida ma'lumotlar keltiriladi.¹⁶

Buxoro amiri Said Olimxonning Rossiya va Yevropaning turli banklaridagi jamg'armalari keyinchalik uning Afg'onistondagi vorislari tomonidan banklardan olinib, ular tomonidan tasarruf qilingani aytiladi. Biroq bu haqiqatdan uzoq. Sababi amirning vorisi Mir Mansur Olimiyning yozishicha, "Amir Sayid Olimxon 1914-yilda o'z vakillaridan To'raqul, Qori Muzrob, Qori Muhammadlar orqali o'n uch ming besh yuz dona qorako'l terini Britaniya Hindistoniga jo'natdi. 1921-yil Afg'onistondan turib Hoji Ismoilbek va To'raqulni qorako'l terilarni sotish uchun Londonga (Angliya) yuboradi. Qorako'l terilar 175 00000 hind rupiyasiga sotildi, shu pul mablag'ining 27930,2,9, pens ingliz funti Londonning "Grind Lays Bank P. J. C." bankasiga amir Olimxon nomiga o'tkazildi. Amir Olimxonning farzandlari London va Peshovar bankalariga necha bor murojat qilishlariga qaramay hanuzgacha pullar qaytarilmagan, hozir ham bu pullar amir Olimxon nomida turganligi" haqida aytiladi.¹⁷

Amir Olimxon tomonidan Yevropa banklariga qo'yilgan sarmoya juda katta miqdorni tashkil qilmaydi va ushbu sarmoyaning bugungi kunda Shveysariya banklarida mavjudligi munozarali masala hisoblanadi. Yana bir muhim jihat amir xazinasining asosiy qismi bo'lgan Buxoro oltinlari o'sha 1920-yil sentyabrda Moskvaga olib ketilgan edi. **Boyliklar Rossiya hukumati tomonidan 1193 dalolatnomasiga asosan quyidagilardan iborat bo'lgan:**

— qimmatbaho toshlar, olmos, marvarid (1041 karat).

— 53 ta yirik olmos.

— oltinlar (424 kg).

— xazinada pul ko'rinishida o'sha davrdagi (1920 yil) kursi bo'yicha tenglashtirilga \$20 mln (inflyatsiya bilan bugungi kunga kelib bu qiymat \$253 mln).

Otin va olmoslarning bugungi kundagi narxi bo'yicha hisoblasak:

• 1 karat olmos \$20 ming atrofida turadi;

• 1 dona yirik olmos \$1 mln atrofida turadi:

• 1 kg oltin \$58 ming 735 atrofida ekan: $(1041 * 20 \text{ ming}) + (424 * 58735) + (53 * 1 \text{ mln}) + 253 \text{ mln} = \$351 \text{ mln } 723 \text{ ming } 640$

Jami boyliklari hozirgi qiymat bo'yicha \$351 mln 723 ming 640 ekan.¹⁸

Fransiya banklaridan birida 70 yildan ko'proq vaqtdan beri Buxoro amirligining xazinasini saqlanmoqda. Yevropada amir xazinasiga qiziqish susayish o'rniga borgan

¹⁶ M. Louw Moral Exemplars and Ordinary Ethics. Constructing the Uzbek State, 2017. 194-bet

¹⁷ M. Louw Moral Exemplars and Ordinary Ethics. Constructing the Uzbek State, 2017. 153-bet

¹⁸ Becker Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924, London, 2004. 224-bet

sari kuchaymoqda. Xazina bir qismining taqdiri aniq: Afg'onistonda muhtojlikda yurgan amir Sayid Olimxon 1928-yilda o'sha vaqtda 180 million oltin frankda baholanadigan xazinasini qaytarishlarini so'rab, Fransiya hukumatiga murojaat etganida Parijdan: «Pullar faqat Buxoro xalqi talab etgan taqdirdagina qaytariladi», - degan aniq va qisqa javob qaytarildi. Agar bu ma'lumotlar to'g'ri bo'lganida, unda Buxoroning so'nggi hukmdori Said Olimxonning bu boy oltin xazinasini endilikda Buxoro mehnatkashlariga nasib etmog'i lozim edi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, amir qushbegi tomonidan ro'yxatga olingan oltinlar ichida amirning Fransiya bankiga qo'ygan 180 million tilla haqidagi ma'lumotni uchramaydi. Ayni vaqtda o'zbek tadqiqotchilaridan, H. Uzoqov va S. Xolboevning Buxoro amirining oltinlari to'g'risidagi maqolasida ham bu to'g'rida hech narsa keltirilmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, amirning Fransiya bankiga qo'ygan oltinlari xususidagi gap-so'zlar izlanishni, chuqur tadqiqotni talab qiladi.¹⁹

¹⁹ M. Louw Moral Exemplars and Ordinary Ethics. Constructing the Uzbek State, 2017, 168-bet